



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2023-yil 2-noyabr, № 233 (8576)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



FRANSIYA PREZIDENTINING MAMLAKATIMIZGA TASHRIFI BOSHLANDI

Mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamrohligida tungi Samarqand bo'ylab sayr qildi.



Davlat rahbarlari UNESCO ning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Registon majmuasiga tashrif buyurdilar.

Oliy martabali mehmonga ushbu Sharq me'morchiligi durdonasining qurilish tarixi, noyob naqshlari, ushbu maskan bilan bog'liq mashhur voqea va shaxslar xususida so'zlab berildi.

Fransiya Prezidentining tashrifi Samarqandda o'tayotgani va aynan Registondan boshlangani bejiz emas. Bu yerda xalqlarimiz o'rtasidagi tarixiy mushtaraklikni mujassam etgan jihatlar ko'p.

Xususan, sohibqiron Amir Temur buyuk sarkarda, savdo va ilm-fan homiysi sifatida Osiyo va Yevropada ro'y bergan tarixiy o'zgarishlarga katta ta'sir ko'rsatgan. XV asrda Parijda uning sharafiga "Yevroning xaloskoriga" degan yodgorlik qo'yilgan. Amir Temur va Fransiya qiroli Karl VI bir-biriga maktublar yuborib, aloqa o'rnatgan. Yozishmalarda siyosiy

masalalar bilan bir qatorda savdo-iqtisodiy aloqalarga ham katta e'tibor qaratilgan.

Fransiyada buyuk Sohibqiron va temuriylar haqida ko'plab ilmiy, badiiy asarlar yaratilgan. Jumladan, fransuz mutafakkiri va adibi Volter asarida Mirzo Ulug'bek, mashhur yozuvchi Jyul Vern romanida Registon mahobati haqida to'liqlanib yozilgan.

Fransiya delegatsiyasi aynan shu maydonda bo'lib turibdi. Tungi chiroqlar bilan yoritilgan majmuaning ulug'vorligi va go'zalligi mehmonlarda katta zavq uyg'otdi.

Shundan so'ng Prezidentlar "Buyuk Ipak yo'li" xalqaro turizm markazidagi "Boqiy shahar" tarixiy-etnografik majmuasida bo'ldilar.

Bu yerda xalqimizning buyuk o'tmishi ramzlari to'plangan, tarixiy shaharlarimizdagi diqqatga sazovor joylarning nusxalari barpo etilgan. Milliy an'alarimiz hamda do'st xalqlar bilan aloqalar

tarixi ham aks ettirilgan. Xususan, Afrosiyob yodgorligi devorlarida saqlanib qolgan Koreya, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlar elchilarini qabul qilish marosimi tasvirlaridan foydalanilgan. Bunday ma'no-mazmun, tarix va bugungi kun uyg'unligi mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

Davlat rahbarlari o'rtasida samimiy muloqot bo'ldi. Samarqand jahon sivilizatsiyasining qadimiy beshiklaridan biri bo'lgani, bugun ham xalqaro sammit va turizm markaziga aylanib borayotgani qayd etildi. Mehmonlarga xalqimizning betakror badiiy, hunarmandlik va musiqiy madaniyati namoyish etildi.

Tashrifning asosiy tadbirlari, shu jumladan, oliy darajadagi muzokaralar

2-noyabr kuni bo'lib o'tadi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmatining surati.

O'zbekiston Respublikasining QONUNI Turkiy investitsiya jamg'armasini ta'sis etish to'g'risidagi Bitimni (Anqara, 2023-yil 16-mart) ratifikatsiya qilish haqida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 10-oktabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2023-yil 28-oktabrda ma'qullangan

1-modd. Turkiy investitsiya jamg'armasini ta'sis etish to'g'risidagi Bitim (Anqara, 2023-yil 16-mart) ratifikatsiya qilin.

2-modd. O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mablag'lari O'zbekiston Respublikasining Turkiy investitsiya jamg'armasidagi ulushini Turkiy investitsiya jamg'armasini ta'sis etish to'g'risidagi Bitimda (Anqara, 2023-yil 16-mart) nazarda tutilgan muddatlarda shakllantirish, shu jumladan uning boshlang'ich kapitalidagi 2 000 ta aksiyaga obuna bo'lish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish manbai ekanligi belgilansin.

3-modd. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Turkiy investitsiya jamg'armasini ta'sis etish to'g'risidagi Bitimning (Anqara, 2023-yil 16-mart) bajarilishi uchun mas'ul bo'lgan vakolatli organ etib belgilansin hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tegishli mablag'larni o'tkazish bo'yicha buyurtmanomalar taqdim etib borsin.

4-modd. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Turkiy investitsiya jamg'armasini ta'sis etish to'g'risidagi Bitim (Anqara, 2023-yil 16-mart) bo'yicha depozitariy funksiyasini bajarishi belgilansin.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2023-yil 1-noyabr
1 O'RQ—875

Dunyo nigohi

TINCHLIKPARVARLIK, MEHR-OQIBAT, YUKSAK INSONIYLIK IFODASI

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 31-oktabr kuni Yaqin Sharqdagi vaziyat keskinlashgani haqidagi bayonoti xalqaro siyosiy, ekspert vajamoatchilik doiralarida katta aks sado berdi.

O'zbekiston rahbarining G'azo sektori aholisiga yordam ko'rsatish uchun BMTning Yaqin Sharq agentligiga 1,5 million dollar ajratish to'g'risidagi qarori, shuningdek, Falastin xalqi bilan mustahkam birdamligini bildirishi hamda BMT Bosh Assambleyasi va Xavfsizlik Kengashi tomonidan ilgari qabul qilingan qarorlarga binoan o'zlarining mustaqil davlatini tashkil etish huquqini qo'llab-quvvatlashi xalqaro maydonda yuqori baholanmoqda.

Xolid Taymur AKRAM, Pokistondagi "Yagona kelajak jamiyati" tahlil markazining ijrochi direktori:



— Pokiston O'zbekiston Prezidentining G'azo sektori aholisiga gumanitar yordam ko'rsatish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yaqin Sharq agentligiga 1 million 500 ming dollar ajratish haqidagi qarorini ijobiy baholaydi.

Bugungi kunda butun musulmon dunyosi Falastinda begunoh odamlar, jumladan, ayollar va bolalar o'layotgan vaziyatdan xavotir bildirmoqda.

O'zbekiston rahbarining qarori, birinchi navbatda, Falastin xalqi bilan birdamlik, tinch aholi orasida ko'plab qurbonlar bo'layotganidan qayg'urish, shuningdek, insonparvarlik ko'magi ko'rsatishga bo'lgan intilish sifatida kutib olindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning nuqtayi nazar musulmon olami rahbarlari uchun davlat arbohi sa'y-harakatining ajoyib namunasi hisoblanadi. Ular o'z mamlakatlarida xavfsizlik va jamoat tartibini saqlash uchun zarur choralar ko'rishlari lozim.

O'zbekiston rahbari xalq kayfiyatini nozik his etgani holda o'zbek jamiyatida dinlararo va millatlararo barqarorlik hamda tinchlikni saqlash uchun oqilona va vazminlik bilan harakat qiladi.

Shu qatori, O'zbekiston rahbari ezgulikka yo'g'rilgan qarori bilan

Falastinning BMT rezolyutsiyalariga muvofiq o'z mustaqil davlatini tuzishi huquqini ham qo'llab-quvvatlashi va inqiroz hududida harbiy harakatlarni zudlik bilan to'xtatishga da'vat etdi.

Mars SARIYEV, qirg'izistonlik mustaqil ekspert, siyosatshunos:



— Prezident Shavkat Mirziyoyev 31-oktabr kuni hukumat a'zolari bilan uchrashuvda O'zbekiston Yaqin Sharqda tinchlik o'rnatilishini qo'llab-quvvatlashini hamda G'azo sektori aholisiga baholi qudrat yordam ko'rsatish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yaqin Sharq agentligiga 1 million 500 ming dollar ajratish haqida qaror qabul qilgani haqida juda muhim bayonotini e'lon qildi.



Prezident tashrifidan so'ng

AVTOMOBIL EHTIYOT QISMLARI SAVDO MAJMUASI OCHILDI

Samarqand tumanida "AVTO MALL SAMARQAND" mas'uliyati cheklangan jamiyatining avtomobil ehtiyot qismlari savdo majmuasi ish boshladi.



Joriy yilning avgust oyida Samarqandga tashrif buyurgan Prezident Shavkat Mirziyoyev mazkur bozorni o'z ichiga olgan savdo, sanoat va servis majmuasi qurilish maydonida bo'lgani. 37 gektar hududini egallagan majmuada umumiy qiymati 2 trillion 79 milliard so'mlik 7 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Avtomobil ehtiyot qismlari bozori ushbu loyihalarning eng yirigi bo'lib, 11 gektar maydonda barpo etildi.

Davlatimiz rahbari o'n mingga yaqin ish o'rinlari yaratiladigan loyihalarni tezlashtirish, ishlab chiqarishni ta'kidlagandi.

"Nurli kelajak ishonch servis" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 500 milliard so'mlik loyiha asosida buniyod etilgan majmuaning ochilish marosimida viloyat jamoatchiligi vakillari, tadbirkorlar qatnashdi.

— Ushbu savdo markazi "Univer Pro Stile" MCHJ loyihasi asosida buniyod etildi, — deydi "Nurli kelajak ishonch servis" MCHJ rahbari Akbarali Qayumov. — Majmuaning birinchi qavatida avtomobil ehtiyot qismlari savdosiga mo'ljallangan 751 ta do'kon, 2 ta avtosalon, bank shoxobchalari va yengil avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish nuqtalari mavjud. Shuningdek, 2300 ta avtomobil sig'imiga ega avtoturargoh o'rin olgan. Ikkinchi qavatda esa kafe va restoranlar, tibbiy xizmat ko'rsatish xonasi, trenajer zali, ma'muriy xonalar joylashgan. Mazkur obyekt ish boshlashi bilan 3 mingta yangi ish o'ri yaratildi.

Savdo markazi Samarqand shahri markazidan 10 kilometr masofada, Samarqand halqa yo'li bo'yida buniyod etilgani xaridorlar uchun yana bir qulaylikdir.

Bu yerlar jarlik, notekis va tashlandiq joy edi, endi esa qishlog'imiz atrofi sanoat, xizmat ko'rsatish hududiga aylandi, — deydi Samarqand tumani hokimining Do'stlik mahallasidagi yordamchisi Bahodir Abdurahmonov. — Mahallamiz aholisi, asosan, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi. Bozor ishga tushgach, yuzlab mahalladoshlarimiz shu yerda ishga joylashib, doimiy ish o'rniga ega bo'ldi. Uman, bozor atrofidagi to'rt-besh mahalladan ko'plab kishilar endi shu yerdan daromad topishi mumkin.

"Xalq so'zi".

Oreliya BUSHEZ:

PREZIDENTIMIZNING TASHRIFI HAMKORLIGIMIZNI YANADA CHUQURLASHTIRISH UCHUN MUSTAHKAM POYDEVOR BO'LADI

So'nggi yillarda O'zbekiston turli yo'nalishlarda xalqaro hamkorlik ko'laminii izchil kengaytirib bormoqda. Ayniqsa, respublikamiz Osiyodan tortib, Yevropa va Amerika davlatlarigacha barcha sohada yangicha taklif, tashabbuslar ilgari surayotgan yurt sifatida dunyo hamjamiyati e'tirofiga sazovor bo'lyapti.

Bugun yirik loyihalar ustida ish olib borayotgan, turli mamlakatlarda madaniy salohiyatini namoyish etib kelayotgan yurtimiz Yevropa davlatlari, jumladan, Fransiya bilan ham yaqin hamkorlik o'rnatgan.

O'tgan yil noyabr oyida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiyaga ikkinchi tarixiy tashrifi amalga oshirildi. Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron 1-2-noyabr kunlari rasmiy tashrif bilan yurtimizda bo'lib turibdi.

Ushbu voqea oldidan O'ZA muxbiri Fransiyaning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Oreliya BUSHEZ bilan ikki tomonlama aloqalarning hozirgi holati va istiqbolini xususida suhbatlashdi.

— Oreliya Bushez xonim, keling suhbatimizni o'tgan yil ikki davlat hayotida beqiyos ahamiyat kasb etgan tashrif bilan boshlasak. Shavkat Mirziyoyevning Parijga amalga oshirgan tashrifi doirasida erishilgan kelishuvlar, imzolangan hujjatlar ijrosi bo'yicha o'tgan davr mobaynida qanday ishlar amalga oshirildi?

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil noyabr oyida Parijga tashrifi, eng avvalo, iqtisodiy, madaniy va siyosiy jihatdan juda boy, sermazmun bo'ldi.



TINCHLIKPARVARLIK, MEHR-OQIBAT, YUKSAK INSONIYLIK IFODASI

Menimcha, bu tashlangan juda muhim qadam bo'lishi barobarida boshqa mamlakatlar, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari uchun Falastin xalqiga ko'mak ko'rsatish nuqtayi nazaridan yaxshi mujda va namuna hisoblanadi.

aqada qo'llab-quvvatlanadi. Jumladan, Qirg'iziston ham jamoat tashkilotlari orqali Falastin xalqi uchun insonparvarlik yuklarini shakllantirmoqda.

Ilgar VELIZADE, "Janubiy Kavkaz" siyosatshunoslar klubi rahbari (Ozarbayjon):



O'zbekiston rahbarining bayonoti xalqaro huquq me'yorlari va tamoyillarini qat'iy qo'llab-quvvatlash, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini ado etish, jumladan, O'zbekistonning Islom hamkorlik tashkiloti doirasida ifodasini topgan an'anaviy fashiyasi siyosiy strategiyasining ruhi va mohiyatiga to'la mos keladigan qadamdir.

Rasmiy Toshkent mustaqil O'zbekiston davlati vujudga kelgan butun tarix davomida hech qachon o'z so'zidan qaytmagan, xalqaro huquq me'yorlarini, jumladan, gumanitar huquqni qo'llab-quvvatlash uchun amaliy qadamlarni tashlamoqda.

Ushbu yordam va gumanitar kelishuvga da'vat faqat siyosiy an'analarga hurmatgina emas, bu, shuningdek, zo'ravonlikni zudlik bilan o'xtatish va falastinliklarning yana qoni to'kilmoqda, gumanitar vaziyat yomonlashmoqda, odamlar nobud bo'lmoqda va afsuski, bu

"Dunyo" AA.

Davra suhbat

O'zbekistonda yetishtirilgan meva-sabzavotlar haqiqiy brendga - savdo belgisiga aylandi

Mamlakatimizning Pekindagi elchixonasida O'zbekistonning iqtisodiy, sarmoyaviy va sayyohlik salohiyatiga bag'ishlangan davrasuhbati bo'lib o'tdi.



Tadbir davomida savdo, transport, logistika, elektronika, sanoat ishlab chiqarish, energetika, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, sayyohlik kabi sohalarda faoliyat olib boradigan Xitoyning 20 dan ortiq yirik kompaniyasi va tashkilotlarining rahbarlari ishtirok etdi.

Davra suhbatida mamlakatimizda biznes muhitini yaxshilash bo'yicha erishilgan muvaffaqiyatlar, O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi, turizm jabsasidagi o'zgarish va qo'lga kiritilayotgan e'tiborga molik muvaffaqiyatlar, jumladan, viza tartib-taomillarini yengillashtirishda xorijiy investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan taqdim qilindi.

Tadbir ishtirokchilari mamlakatimizda ishlabarmonlar hamda xorijiy sarmoyadorlar uchun yaratilgan qulaylik va imtiyozlar, investorlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarini yuqori baholashdi.

"Beijing Belt & Road Cooperative Community" prezidenti Xua Xan Xitoy va O'zbekiston o'rtasida barcha sohada samarali aloqalar yo'lga qo'yilgani xususida to'xtalar ekan, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida ikki davlat turli jabhalarda, shu jumladan, sanoat, energetika, infratuzilmani rivojlantirish, transport, logistika, qishloq xo'jaligi, turizm

yo'nalishlarida o'zaro rishtalarni yanada mustahkamlayotganini ta'kidledi. "E-to-China.com (ETCN)" bosh direktori Xu Sun O'zbekistonning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va ta'siri oshib borayotganini qayd etib, "Raqqamli Ipak yo'li" tashabbusining jadal rivojlanishi mintaqaviy mamlakatlarining iqtisodiyotini o'zgartirishga imkon yaratishi va o'zi rahbarlik qilayotgan kompaniya bu sohada O'zbekiston kompaniyalari bilan o'zaro hamkorlikka tayyor ekanligini aytdi.

"Optima Integration Group" kompaniyasining Xalqaro aloqalar departamenti bosh direktori Yan Binbin O'zbekistonda yetishtirilgan meva-sabzavotlar katta e'tiborga ega bo'lgan haqiqiy brendga - savdo belgisiga aylanganini va bu mahsulotlar yuqori darajada raqobatbardosh ekanligiga to'xtaldi.

Uning aytishicha, "Optima Integration Group" kompaniyasi qishloq xo'jaligi mahsulotlari sanoati tarmog'ida faoliyat ko'rsatadi. Yan Binbin kelajakda O'zbekistonda yetishtirilgan tabiiy mahsulotlarni Xitoy bozoriga olib kelish niyatida ekanligini bildirdi.

"Dunyo" AA. Pekin

Oreliya BUSHEZ:

PREZIDENTIMIZNING TASHRIFI HAMKORLIGIMIZNI YANADA CHUQUURLASHTIRISH UCHUN MUSTAHKAM POYDEVOR BO'LADI

Bu voqea to'rt yil avval amalga oshirilgan birinchi tashrifdan keyin mamlakatimiz misli ko'rilmagan darajada yaqinlashgani, davlatlarimiz rahbarlari o'rtasidagi do'stlik rishtasi yanada mustahkamlanishining isbotidir. Mazkur tashrif chog'ida ikki davlat yetakchilari Luvr muzeyi va Arab dunyosi institutida o'zbek madaniy va tarixiy merosiga bag'ishlangan ikki noyob ko'rgazmani ochib berdi. Bu loyihalar Fransiya jamoatchiligi va poytaxtdagi tashrif buyurgan sayyohlar tomonidan juda iliq kutib olindi. Luvrda "O'zbekiston vohalarining mo'jizalari" ko'rgazmasiga 300 mingdan ziyod kishilar tashrif buyurganini mamuniyat bilan ta'kidlamog'chi edim.

Kelishuvlar turli sohalarni qamrab olib, jami o'n uchta hujjat imzolandi. Yakunda qabul qilingan qo'shma bayonotda davlat rahbarlari uchrashuvi qanday karyiyatda o'tgani, o'zaro munosabatimiz, istiqbolimizni qo'llab-quvvatlash e'tibori ta'kidlandi.

Umumiy qiymati 5 milliard yevroga teng o'ttizdan ziyod iqtisodiy bitimlar imzolandi. Bular orasida jami 1 milliard yevroga teng Fransiya taraqqiyot agentligi kredit dasturi alohida ahamiyatga ega.

Kelishuvlar doirasidagi loyihalar bo'yicha ishlar ayni payt qizg'in davom etmoqda. Quvonarlisi, aniq natijalarga erishilgan. Ta'lim sohasidagi hujjatlar fransuz tilini o'qitish bo'yicha hamkorligimizga sezilarli turki berdi.

Ma'lumki, Fransiya va O'zbekiston aeronavtika sohasida uzoq vaqt davomida hamkorlik qilib kelyapti. Jumladan, "O'zaviasiya" fuqaro aviatsiyasi agentligi va Fransiya Fuqaro aviatsiyasi bosh boshqarmasi o'rtasida imzolangan kelishuv doirasida o'zbekistonlik o'n ikki nafar inspektor Toshkent shahriga taklif etilgan fransuz mutaxassis tomonidan nazorat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha

seminar-treningda qatnashgan. Fransiya iqlim o'zgarishi kabi global muammolarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyoda suv muammosi juda dolzarb. Markaziy Osiyo xalqaro instituti va Fransiyaning Markaziy Osiyo tadqiqot instituti o'rtasida imzolangan kelishuvga muvofiq, "Markaziy Osiyoda suv" mavzuga bag'ishlangan anjuman hamkorlikda tashkil etildi.

Iqtisodiy sohada ham ko'plab misollar keltirish mumkin. 2022-yil noyabr oyida imzolangan kelishuv doirasida eng ko'zga ko'ringan yutuqimiz "Uzbekistan Airways" AJ uchun "Airbus A320/A321" va "Sikavia ATR72-600" sotib olinishidir. "Alstom" bilan imzolangan "Yo'l xaritasi" asosida yo'lga qo'yilayotgan bo'lajak Toshkent tramvay tizimi, "Suey" kompaniyasi tomonidan poytaxt suv ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish kabi yirik loyihalar ham mavjud.

— Prezident Emmanuel Makron O'zbekistonga ilk rasmiy tashrifini amalga oshirmoqda. Sizningcha, yuqori martabali mehmonning kelishi, o'tadigan tadbirlarning ahamiyati nimada?

— Prezident Emmanuel Makronning rasmiy tashrifini bir necha jihati bilan tarixiy voqea. Birinchidan, bu Fransua Mitteranning 1994-yil apreldagi safaridan keyin Fransiya yetakchisining O'zbekistonga ilk bor kelishi. Ikkinchidan, bu tashrif 1993-yil 27-oktabr sanasida ikki davlat o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida Bitim imzolashiga o'ttiz yil o'tishi munosabati bilan amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston G'arbdagi hamkorlari orasidan birinchi bo'lib imzolagan Bitim mamlakatimizga mustaqillikka erishgandan keyin yurtimizga bildirgan yuksak ishonchni ko'rsatadi. Ushbu hujjat ikki

tomonlama munosabati rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi. Aloqalarimiz keyingi yillarda barcha sohada misli ko'rilmagan darajada jadal tus oldi.

Prezidentimizning tashrif tarixiy ahamiyatga ega ekan ham shundan: bu hamkorligimizni yanada chuquurlashtirish uchun mustahkam poydevor bo'ladi. Va nihoyat, ushbu tashrif uchun Samarqand shahri tanlanishi bilan Yevropa davlatlari rahbarlarining O'zbekistonga amalga oshirgan tashriflaridan ajralib turadi.

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'tgan yil Parij shahriga amalga oshirgan tashrif O'zbekistonga bag'ishlangan ikki ko'rgazmaning ochilishi bilan o'ziga xos madaniy ahamiyat kasb etdi, qolaversa, ko'plab institutsional va iqtisodiy shartnomalar tuzish imkonini berdi. Fransiya Prezidentining tashrifidan nimalar kutamiz?

— Rasmiy tashrif to'rtta asosiy maqsadni ko'zlagan:

Fransiya Prezidenti O'zbekiston suverenitetini qo'llab-quvvatlashini va mamlakatning xalqaro sheriklik aloqalarini diversifikatsiya qilish istagini namoyish etish niyatida. Bu, ayniqsa, Afg'onistonda Tolibon hokimiyatiga qaytgan va Rossiya — Ukraina ziddiyati davom etayotgan bir paytda muhim ahamiyatga ega.

Eng muhimi, mazkur tashrif yangi iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali munosabatimizni energetika, shahar xizmati, transport sohasidagi sheriklikni yanada kengaytirish imkonini beradi.

Bugun bo'lib o'tadigan biznes forumi doirasida Fransiyaning yirik kompaniyalari va O'zbekiston hukumati o'rtasida bir qancha kelishuvlar imzolandi. Mazkur anjuman 50 dan ziyod fransuz

kompaniyalari vakillarini jamlaydi, bu Fransiya kompaniyalarining O'zbekistonga qiziqishi va ishtiroq o'rtib borayotganidan dalolat. Prezident ikki tomonlama Savdo-sanoat palatasi ochilishida ham ishtirok etadi. Demak, iqtisodiy munosabatlarmizda yangi sur'at chinakamiga aks etadi.

Yana bir maqsad: global muammolarni, xususan, Markaziy Osiyoga ta'sir etuvchi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq masalalar bo'yicha hamkorlikni rag'batlantirish. Bu masala bo'yicha siyosiy muloqotdan tashqari, Fransiya taraqqiyot agentligi tomonidan ajratilgan investitsiya evaziga O'zbekistonda "yashil energiya"ga o'tish borasidagi sa'y-harakati qo'llab-quvvatlanmoqda.

Yana bir muhim yo'nalish — o'zbek yoshlari va ta'lim. Bunda bir Prezident Mirziyoyev belgilab bergan ustuvor yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlaymiz. Ta'lim vazirliklari o'rtasida fransuz tili o'qituvchilari malakasini oshirish, kasb-hunar, maktabgacha ta'lim tizimi va maktab o'quvchilari uchun "DELTA" sertifikatini joriy etish kabi mavzularni qamrab olgan kelishuv imzolandi.

Makron Samarqand fransuz alyansi ochilish marosimida qatnashadi. Samarqand shahrining tarixiy qismida joylashgan ushbu fransuz tili va madaniyat markazi fransuz tilini o'rganish istagidagi yoshlar uchun eng sevimli joyga aylaniishi, shubhasiz. Majmuaning ochilishi tarixiy shaharda fransuz sayyohlari soni ko'payishi tufayli fransuz tiliga nisbatan ortayotgan kuchli talabga munosib javob bo'ladi.

O'ZA muxbiri Behruz XUDOYBERDIYEV

ILM-FAN VA TA'LIMDA ISTIQBOLLI ALOQALAR

Bugun Fransiya oliy ta'lim tizimi jahonda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Buning asosiy omili fransuz oliy ta'lim muassasalarining o'z korporativ, akademik va ilmiy tadqiqot tamoyillariga sodiq qolgan holda dinamik rivojlanish hamda global o'zgarishlarga tezda moslashuvchanlik ko'rsatayotganidir. Fransuz universitetlari ishlab chiqarish korxonalarini bilan aloqalarini mustahkamlash va xalqaro rishtalarni kengaytirish orqali ta'limda chuqur ixtisoslashuv yo'lida bormoqda. "Quacquarelli Symonds", "Times" kabi jahonning yetakchi reyting agentliklari ro'yxatida yuqori mingtalikka kiruvchi oliy ta'lim muassasalari qatorida Fransiyaning kamida 30 ta universiteti doimiy joy olib kelayotgani ushbu sa'y-harakatlarning yaqqol natijasidir.

Mushohada

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Fransiyaga tashrif davomida imzolangan hujjat va deklaratsiyalar qatorida madaniy-tarixiy meros, maktabgacha, xalq va oliy ta'lim, davlat xizmatini rivojlantirish sohasidagi kelishuvlar mavjudligi alohida e'tiborga molik.

2021-yil oktabr oyida O'zbekiston — Fransiya birinchi ta'lim forumi Toshkent shahrida o'tkazilgan bo'lsa, ikkinchi forum 2022-yil noyabrda Parij shahrida bo'lib o'tdi. Shu kunlari jahonda mashhur Luvr muzeyida O'zbekiston madaniy merosining birinchi ko'rgazmasi ham ochilib minglab san'at, madaniyat, tarix ixlosmandlarini o'ziga jalb etdi. Ushbu ko'rgazma tashkilotchilardan biri, o'zbek — fransuz madaniy aloqalar rivojlanishiga o'z hissasini qo'shib kelayotgan Luvr muzeyi Islom san'ati departamenti arxeologi, mashhur olim Rokko Rantega yaqinda Buxoro davlat universiteti faxriy professori unvoni topshirildi.

Buxoroda Fransiya tarixi va fransuz tilini o'rganishga katta e'tibor berilmog'chi. Vilyodagi fransuz tili o'qitiladigan maktablar o'qituvchilari, o'rta maxsus va oliy ta'lim bosqichidagi talabalar fransuz tili ko'nikmalari bo'yicha respublikamizda yetakchilardan hisoblanadi.

Buxoro va Ryuey-Malmезon

shaharlari o'rtasida birodarlik munosabatlari o'rnatilgan bo'lib, rasmiy va tadbirkorlar delegatsiyalarining muntazam muloqotlari, madaniy sohadagi qo'shma loyihalar, ko'rgazma va taqdimotlarning tashkil etilishi munosabatlarining yanada mustahkamlanishiga hissa qo'shmoqda.

2019-yilning aprel oyida Ryuey-Malmезon shahrining markaziy bog'laridan birida "O'zbek bog'i" ochilib, uning hududida buxorolik buyuk olim Abu Ali bin Sino haykali o'rnatildi. Joriy yilda Navroz bayrami munosabati bilan bog'da o'zbek bog'dorchiligining bezagi bo'lgan anor ko'chatlari ekildi.

Buxoro davlat universiteti ham Fransiya oliy ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik o'rnatgan. Aslida, fransuz oliy ta'limi, madaniyati, tili va adabiyoti bilan tanishish yo'lidagi ilk tashabbus 1969-yilda Buxoro davlat pedagogika instituti (hozirgi Buxoro davlat universiteti) tarkibida Fransuz tili kafedrasining tashkil qilinishiga borib taqaladi. Albatta, bu o'zaro til va madaniyat borasida hamkorlikni rivojlantirish yo'lida tashlangan ilk qadam bo'lmasa-da, tom ma'noda yoshlarga buyuk fransuz namoyandalari Viktor Gyugo, Jyul Vern, Aleksandr Dyuma, Onore de Balzak, Jan-Batist Molyer, Gi de Mopassan merosini



asliy matnlarda o'rganish bilan bir qatorda diplomatik aloqalarni rivojlantirishga zamin yaratgan. Bugungi kungacha yarim asrdan oshiq davr o'tsa-da, fransuz tili va madaniyatini o'rganishga bo'lgan harakatlar ko'hna Sharq dardosini sanalmish Buxoroda o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Buxoro davlat universitetining fransuz tilini o'rganuvchi talabalar Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi tomonidan tashkil etilgan "Talabalar va o'quvchilar o'rtasida teatr va qo'shik festivali", "Frankofoniya" til bayrami, "DELTA-DALF" o'quv va til imtihonlari hamda respublika va xalqaro fan olimpiadalari, tanlovlarda ishtirok etib, faxrii o'rinlarni egallab kelmog'chi.

Ayni chog'da Fransiyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalari hisoblanuvchi Parij-Sakle, Sorbonna, Fransua Rable nomidagi Tur, Grenobl-Alp universitetlari bilan ilmiy yo'nalishlarda hamkorlik o'rnatilgan, o'zaro professor-o'qituvchi, tadqiqotchi va talaba almashish amalga oshirilmoqda. "Fransuz alyansi" bilan hamkorlik ko'lami tobora kengayib, fransuz tilini bilish sertifikatlariga ega bo'lganlar soni oshib bormoqda. "El-yurt umidi" jamg'armasi tanlovlari g'oliblari sifatida bir necha tadqiqotchi o'z ilmiy ishlarini Fransiyada davom ettirmoqda.

2021-yilda "Fransiya — Markaziy Osiyo" parlamentlararo do'stlik guruhi delegatsiyasining yurtimizga tashrif doirasida kaminaga Fransiya Senatining maxsus ko'krak nishoni topshir-

di. Buni universitetda fransuz tili va madaniyati, tarixiy merosini o'rganish borasida bajarilayotgan ishlarining e'tirofi sifatida qabul qilindi.

Fransiyanning mamlakatimizdagi Fayvulodda va muxtor elchisi Oreliya Bushezning 2022-yilda universitetimizga tashrif chog'ida erishilgan kelishuvlar oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning yanada rivojlanishiga turki berdi. Natijada Fransiya elchixonasining tashabbusi bilan Vishi shahridagi "CAVILAM" fransuz tili markazida bugungi kunda dolzarb bo'lib turgan "STEM fanlarini o'qitishda fransuz tili imkoniyatlaridan foydalanish", "Fransuz tilini o'qitishda zamonaviy tendensiyalar" malaka oshirish kurslarida BuxDU o'qituvchilarining malaka oshirishlari yo'lga qo'yildi. Va o'sha yilning o'zida 9 nafar professor-o'qituvchimiz ushbu malaka oshirish kurslarini bitirib qaytdi.

"VATEL" mehmonxonasi va turizm maktabi bilan hamkorligimiz alohida ahamiyatga ega. Jahon akademik reytinglarida "Turizm va mehmondo'stlik" sohasi bo'yicha jahonda 11-o'rin, Fransiyada 1-o'rinni egallab turgan "VATEL" guruhi 1981-yilda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda o'z ta'lim muassasalari, restoranlari, mehmonxonalarini mavjud bo'lgan yirik ta'lim klasteriga aylangan. U jahondagi mehmonxona va turizm menejmenti yo'nalishidagi ilk va yirik biznes maktablar guruhi hisoblanadi. Ayni chog'da uning jahon bo'ylab 50 dan ko'p shaharlarda filiallari faoliyat ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, Buxoro davlat universitetida Fransiya ta'lim muassasalari bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik mamlakatimizda zamonaviy bilimlarni egallagan, o'z kasbining ustasi bo'lgan yetuk kadrlarni tayyorlashga, shuningdek, davlatlararo do'stlik munosabatlari rivojiga ham munosib hissa bo'lib qo'shilmog'chi, desak, mubolag'a emas.

Obidjon HAMIDOV, Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

MAHALLANING FRANSIYALIK BUVIJONI

Ko'hna Buxoroning "Jalol Ikromiy" mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan qadimiy ko'chalardan birida "Helene Oasis" degan yozuvni ko'rish mumkin. Sharqona uslubda bunyod etilgan bu hovlidan sayyohlar, xususan, Fransiyadan tashrif buyuradigan mehmonlarning qadami uzilmaydi. "Helene Oasis" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli ushbu mehmonxona faoliyati fransiyalik Elen Pelos xonim tomonidan yo'lga qo'yilgan.

Do'stlik rishtalari

Mabodo, hovlining qadimiy eshigini chertib, ichkariga kirsangiz, Elen xonim o'zbek tilida "Assalomu alaykum, xush kelibsiz!" deya xalqimizga xos ochiq chehra bilan kutib oladi.

Elen Pelos Fransiyaning Bezanson shahridan. 30 yildan ziyod vaqt mobaynida o'z yurtida konservatoriyada talabalarga saboq

bergan. Nafaqaga chiqqach, sayru sayohatni odat qilgan.

— Buxoroga 2006-yilda keldim-u, necha ming yillik tarixga ega, samimiy odamlar, ayniqsa, yoshlar bilan gavjum qadimiy shaharga ipsiz bog'lanib qoldim, — deydi u har gal qiziquvchan yurtdoshlarimizga. — Bu ko'hna shahar meni o'ziga

ohanrabodek jalb etdi. Oradan ikki yil o'tib, jamg'armamning bir qismiga shu yerdagi hovlilardan birini xarid qilib, mehmonxona ochdim.

Mehmonxona ish yurituvchisi Lola Obloqulovaning bildirishicha, Elen xonim har yili ikki bor Buxoroga kelib, 3-4 oy yashab ketadi. Qo'ni-qo'shnilari bilan suhbatlashadi. Milliy musiqa san'atimiz hamda sharqona taomlarimiz haqida gurgunlashishni xush ko'radi. Qurbon hayitida jonliq so'yib, mahalladoshlarga hayitlik ulashganiga nima deysiz?!

Yetmish yoshni qorab qo'ygan Elen xonim allaqachon mahallaning buvijonisiga aylangan. Yuqorida o'zbek — fransuz xalqlari hamkorligi, do'stligiga oid kichik bir dalilni keltirdik. Vaholanki, ikki davlat o'rtasidagi aloqalar qamrovi juda keng.


Deylik, yurtimiz ta'lim muassasalarida

fransuz tilini o'qitish borasida boy tajriba to'plangan. Shu o'rinda birgina G'ijduvon tumanidagi 62-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabini misol tariqasida keltirish mumkin. Fransuz tilini chuqur o'rgatish borasidagi yutuqlaridan kelib chiqib, bu bilim dargohiga "Fransiyaning O'zbekistondagi maktabi", deya ta'rif berishadi.

Mazkur maktab asoschisi, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi marhum Said Ramonov fransuz tiliga oid bir qator darsliklar hammuallifi sanaladi. Zahmatkash o'qituvchi Fransiyaning 1808-yilda ta'asis etilgan "Palm-akademik" ordeni bilan taqdirlangan edi.

Darvoqe, Buxoro qadim birodarlashganlar qatorida Fransiyaning bilimiy kentlaridan biri — Ryuey-Malmезon shahri ham bor.

Istam IBROHIMOV ("Xalq so'zi").



Senator va hayot

MAQSAD - MUAMMOLARGA YECHIM IZLASH

Keyingi yillarda yurtimizda xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning barcha yo'nalishda salohiyatini yuzaga chiqarish, ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonidagi ishtirokini kuchaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, bir muddat avval Yakkasaroy tumani hokimi lavozimiga ayol rahbar nomzodi ko'rsatilgan va u mahalliy Kengash deputatlariga tomonidan bir qator vazifalar xususida Ushbu majlisda ishtirok etgan Oliy Majlis Senati Raisi tuman aholisi turmush darajasini yanada yaxshilash bilan bog'liq bir qator vazifalar xususida to'xtalgan.

Kuni kecha Senat Raisi Tanzila Norboyevaning tuman aholisi turmush darajasini yanada yaxshilash bilan bog'liq bir qator vazifalar xususida to'xtalgan. Ushbu majlisda ishtirok etgan Oliy Majlis Senati Raisi tuman aholisi turmush darajasini yanada yaxshilash bilan bog'liq bir qator vazifalar xususida to'xtalgan.

O'z navbatida, shu kabi muammolarni tizimli hal etish hamda tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi muammolarini chuqur tahlil asosida bartaraf qilish maqsadida Senat a'zolari, Vazirlar Mahkamasi, mutasaddi vazirlik va idoralar, Toshkent shahar va Yakkasaroy tumani hokimligi mas'ullaridan iborat ishchi guruh tuzildi. Ishchi guruhga ikki haftadan muddatda tumandagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid muammolarni, mavjud imkoniyatlarni to'liq tahlil qilish orqali holatni yaxshilashga oid qo'shimcha choralarini ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

Ushbu muammolarni tizimli hal etish hamda tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi muammolarini chuqur tahlil asosida bartaraf qilish maqsadida Senat a'zolari, Vazirlar Mahkamasi, mutasaddi vazirlik va idoralar, Toshkent shahar va Yakkasaroy tumani hokimligi mas'ullaridan iborat ishchi guruh tuzildi. Ishchi guruhga ikki haftadan muddatda tumandagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid muammolarni, mavjud imkoniyatlarni to'liq tahlil qilish orqali holatni yaxshilashga oid qo'shimcha choralarini ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

Ushbu muammolarni tizimli hal etish hamda tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi muammolarini chuqur tahlil asosida bartaraf qilish maqsadida Senat a'zolari, Vazirlar Mahkamasi, mutasaddi vazirlik va idoralar, Toshkent shahar va Yakkasaroy tumani hokimligi mas'ullaridan iborat ishchi guruh tuzildi. Ishchi guruhga ikki haftadan muddatda tumandagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid muammolarni, mavjud imkoniyatlarni to'liq tahlil qilish orqali holatni yaxshilashga oid qo'shimcha choralarini ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

Muloqot davomida tuman faollari ham o'z fikrlarini bildirdi. "Xalq so'zi".

Senat qo'mitasida

DAVLAT ORGANLARIDA OCHIQLIKNI TA'MINLASH ISHLARI QAY HOLATDA?

Bugungi kunda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqchiligi, shaffofligi, hisobdorligini ta'minlash yurtimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Shundan kelib chiqqan holda Oliy Majlis Senati Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqchilikni ta'minlash masalalari qo'mitasi tomonidan parlament nazorati doirasida keng ko'lami ishlar olib borilmoqda. Xususan, davlat organlari va tashkilotlarida ochiqchilikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holati doimiy tarzda tahlil etib kelinayotir.

ing tarkibiy tuzilmalarida ochiqchilikni ta'minlash borasida yo'l qo'yilgan kamchiliklarga ham to'xtalib o'tildi. Xususan, ayrim hududiy bosh boshqarmalarning rasmiy veb-saytida ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlar o'z muddatida joylashtirilmagan. Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hududiy boshqarmalarida axborot xizmatlari tashkil etilmagan.

Qo'mitaning kuni kecha bo'lib o'tgan majlisida ham "Davlat hokimiyati va boshqaruvchi organlari faoliyatining ochiqchiligi to'g'risida"gi Qonunning Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda unga qarashli tashkilotlarda qanday jiro etilayotganligi atroflicha muhokama qilindi.

Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligida esa hozirgacha rasmiy veb-sayt faoliyati talab darajasida yo'lga qo'yilmagan hamda axborot xizmatiga mas'ul shaxs tayinlanmagan. Vazirlik tizimidagi tashkilotlarning aksariyatida faoliyatiga oid hisobotlar, xarid komissiyalari tarkibi, mansabdor shaxslarning xizmat safarlati to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtirilmagan qolmoqda.

Ta'kidlanganidek, vazirlik va uning tasarrufidagi tashkilotlar tomonidan 2023-yilning o'tgan 9 oyida ochiqchilikni ta'minlash yo'nalishida qator ishlar bajarilgan. Masalan, ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar veb-sayt, ochiq ma'lumotlar portaliga (data.gov.uz) o'z vaqtida joylashtirildi. Ayni chog'da jamoatchilikni vazirlik faoliyatidan yatochiqla boxabar qilish maqsadida 20 ta brifing hamda 7 ta press-tur o'tkazilib, yangiliklar aholiga yetkazilgan. Yig'ilishda shu kabi ijobiy ishlar barobarida vazirlik va un-

ing tarkibiy tuzilmalarida ochiqchilikni ta'minlash borasida yo'l qo'yilgan kamchiliklarga ham to'xtalib o'tildi. Xususan, ayrim hududiy bosh boshqarmalarning rasmiy veb-saytida ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlar o'z muddatida joylashtirilmagan. Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hududiy boshqarmalarida axborot xizmatlari tashkil etilmagan.

Muhokama etilgan masala yuzasidan Senat qo'mitasining tegishli qarori qabul qilindi.

Zokir XUDYO'SHUKUROV ("Xalq so'zi").

Konstitutsiyaviy qonun:

ARALASH SAYLOV TIZIMI - DEMOKRATIK ISLOHOTLARNING MUHIM BOSQICHI



Aks sado

Sherzod QULMATOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

— Saylov — demokratik davlatning muhim belgisi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan saylov tartiblari mavjud bo'lib, ularning ichida, ayniqsa, davlat qurilishi tajribasida saylov tizimining majoritar, proporsional va aralash turidagi umumiy foydalanib kelinmoqda.

Hozirgi kunda yurtimizda saylov jarayonlari majoritar tartibda o'tkazilib, Qonunchilik palatasi deputatlari ushbu saylov tizimi asosida, ya'ni hududiy bir mandatlilik asosida, o'zlarini saylaydilar.

O'zbekistonda amaliyot va xorijiy davlatlar tajribasi majoritar saylov tizimining ijobiy jihatlari bilan birga, qator o'ziga xos kamchiliklarini namoyon etmoqda. Xususan, parlamentni shakllantirishda saylovchilarning har bir berilgan ovozi emas, balki o'g'ib bo'lgan nomzodga berilgan ovozlari inobatga olinadi. Ya'ni o'g'ib bo'lgan nomzodni saylagan fuqarolarning xohish-irodasi asosida vakillik organlari shakllantirilib, qolgan saylovchilarning ovozlari ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Proporsional saylov tizimida esa saylovchilar aniq bir shaxsga emas, balki siyosiy partiyalarga ovoz beradi va deputatlik o'rinlari partiyalar olgan ovozlarga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Majoritar va proporsional saylov tizimi — aralash saylov tizimi, deb yuritiladi. Hozirgi kunda Janubiy Koreya, Belgiya, Vengriya, Qozog'iston, Ger-

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining kuni kecha bo'lib o'tgan navbatdagi majlisida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi qizg'in muhokama etildi va qabul qilindi.

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan mazkur hujjat bilan Qonunchilik



palatasi deputatlari korpusini shakllantirishning majoritar-proporsional shakliga asoslangan saylov tizimini joriy etish belgilanmoqda. Demak, mamlakatimiz siyosiy hayotida mutlaqo yangicha tizim asosida saylovlar o'tkazilishining huquqiy asosi yaratilmoqda.

Xo'sh, aralash saylov tizimining qanday afzalliklari bor? Ushbu qonun bilan yana qanday yangiliklar ko'zda tutilayapti? Shu haqda Qonunchilik palatasi deputatlari fikrlarini yozib oldik.

Davlat va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda, shubhasiz, siyosiy partiyalar va ularidan saylangan deputatlarining ahamiyati katta. Xalq vakillarining saylanishida va ularning mamlakat hayotida kechayotgan siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishida ochiq va shaffof saylov tizimi zarur.

Jahon tajribasida o'zini oqlagan aralash saylov tizimi — fuqarolarimizning siyosiy faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa milliy parlamentimiz faoliyatining kuchayishi, siyosiy partiyalarning yanada jadalashuviga turki bo'ladi.

Kuni kecha qabul qilingan Konstitutsiyaviy qonun saylov va referendum to'g'risidagi qonunchilikni yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiqlashtirishga qaratilgan bilan e'tiborga molik.

Chunonchi, ushbu qonun bilan saylov okruglari bir mandatlilik va yagona saylov okruglariga ajratilmoqda. Qonunchilik palatasining 75 nafar deputati majoritar saylov tizimi asosida bir mandatlilik saylov okruglaridan, qolgan 75 nafari proporsional saylov tizimi (nomzodlar ro'yxati) asosida siyosiy partiyalarga berilgan ovozlari bo'yicha yagona saylov okrugidan saylanishi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, partiya ro'yxatidagi ketma-ketlikda kamida har besh nafar nomzodning ikki nafari ayol kishi bo'lishi nazarda tutilayapti. Bu, shubhasiz, gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishga keng yo'l ochadi.

Muqaddas O'RAZALIYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

— Konstitutsiyaviy qonunning muhim jihatlari to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Saylov kodeksi yangi 401- va 421-moddalar bilan to'ldirilmoqda. Ushbu moddalarda siyosiy partiyalar tomonidan shakllantirilgan deputatlikka nomzodlarning partiyaviy ro'yxatini ro'yxatga olish va partiya ro'yxatidan deputatlikka nomzodni chiqarish tartiblarini hamda aniq mexanizmlari belgilab berilmoqda.

Xususan, 401-moddada partiya ro'yxati Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olinishi, bu bo'yicha tegishli hujjatlar ro'yxatga olish muddati tugashiga kamida yetti kun qolungacha qadar Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etilishi, partiya ro'yxatini belgilangan tartibda ro'yxatga olish saylovga o'ttiz besh kun qolganida tugallanishi, ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi xabar besh kunlik muddatda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan e'lon qilinishi, belgilangan tartibda ro'yxatga olingan partiya ro'yxatiga kiritilgan deputatlikka nomzod maqomini olishi va ularga guvohnoma berilishi to'g'risidagi qoidalar o'z ichiga olgan.

Aytish joizki, belgilangan tartibda ro'yxatga olingan partiya ro'yxatlarini keng jamoatchilik e'tiboriga e'lon qilish qoidasining belgilanishi so'nggi yillarda mamlakatimizda keng joriy etilayotgan ochiqchilik va oshkorlik prinsiplariga to'la mos keladi.

Shuningdek, ayrim holatlarni istisno etgan holda ro'yxatga olingan partiya ro'yxatlarini keng jamoatchilik e'tiboriga e'lon qilish qoidasining belgilanishi so'nggi yillarda mamlakatimizda keng joriy etilayotgan ochiqchilik va oshkorlik prinsiplariga to'la mos keladi.

Shuningdek, ayrim holatlarni istisno etgan holda ro'yxatga olingan partiya ro'yxatlarini keng jamoatchilik e'tiboriga e'lon qilish qoidasining belgilanishi so'nggi yillarda mamlakatimizda keng joriy etilayotgan ochiqchilik va oshkorlik prinsiplariga to'la mos keladi.

Ayonki, amaldagi qonunchiligimizda majoritar saylov tizimi asosidagi depu-



zodlarni nomzodlik maqomidan mahrum etish hamda uning nomzodlikdan voz kechishiga oid qoidalar belgilangan. Xuddi shunday, proporsional saylov tizimida partiya ro'yxat asosida berilgan deputatlikka nomzodlarni nomzodlik huquqidan mahrum etish va voze kechish instituti qonun loyihasida belgilab berilmoqda. Ya'ni ushbu munosabatlarni tartibga solish uchun loyiha bilan Saylov kodeksiga kiritilgan 421-moddada partiya ro'yxatiga kiritilgan nomzodlarni ushbu ro'yxatdan chiqarishning aniq 9 ta asosi belgilab berilmoqda.

Mazkur moddada agar deputatlikka nomzod ixtiyoriy ariza berganda, partiya a'zoligidan chiqqanda, nomzodlik maqomidan mahrum etilganda, deputatlik vakolatiga muvofiq kelmaydigan lavozimga o'tlganda, uning boshqa partiya ro'yxatida ham nomzod ko'rsatilganda, boshqa partiyaning a'zosi ekanligi aniqlanganda, vafot etganda, muomalaga layoqatsiz, deb topilganda, shuningdek, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun sudlanganlik holati mavjud bo'lganda, uning bir mandatlilik saylov okrugidan ham nomzod ko'rsatilganda partiya ro'yxatidan chiqarilishi mumkinligi ko'rsatilmoqda.

Shu o'rinda agar yuqoridagi asoslar ko'ra, belgilangan tartibda ro'yxatga olingan partiya ro'yxatidagi nomzodlar ushbu ro'yxatdan chiqarilsa yoki proporsional tizim asosida shakllantirilgan deputatlik o'rni bo'shab qolsa, ularning o'rni qanday to'ldiriladi, degan haqli savol tug'iladi. Bunday holatlarda qonun bilan shunday qoida belgilanyaptiki, unga ko'ra, bo'shab qolgan nomzod yoki deputat o'rni tegishli partiya ro'yxatidagi keyingi navbatdagi mandatga ega bo'lmagan nomzodlar hisobidan ro'yxat ketma-ketligi asosida to'ldiriladi.

Umunam olganda, Konstitutsiyaviy qonun siyosiy partiyalar va deputatlar o'rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishiga, partiyalar mavqei hamda saylov organlarining professionallik darajasi yanada oshishiga xizmat qiladi.

"Xalq so'zi".

“YANGI O‘ZBEKISTON – IJTIMOYIY DAVLAT” TAMOIYILI – AMALDA

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda "Yangi O'zbekiston — ijtimoiy davlat" degan tamoyil qat'iy belgilangan. Bu bejiz emas. Chunki "ijtimoiy davlat" negizida "Inson qadriini ulug'lash" g'oyasi yotadi. Bu har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini kafolatlash, sifatli ta'lim va tibbiy xizmat, bolalar, xotin-qizlar, keksalar, nogironliligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, muhtojlar bandligi, ularni uy-joy bilan ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitlarini kafolatlash deganidir.

10 baravar oshirilib, 11 trln. so'mga yetkazildi. Natijada ijtimoiy nafaqa oluvchi oilalar soni 2,1 mln.dan ko'payib, mamlakatimizdagi jami oilalarning 23,3 foizini tashkil etadi.

Shuningdek, 2021-yildan boshlab ijtimoiy himoya yagona reyestri orqali bunday nafaqalarni avtomatik tarzda tayinlash tizimi yo'lga qo'yildi. Bu, o'z navbatida, shaffoflikni ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Shu yilning birinchi yarim yilida ushbu tizim orqali fuqarolarga 278,4 mln. so'mlik "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi" to'lab berildi. Shuningdek, bu tizim orqali xususiy sektordagi band bo'lgan ayollarga homiladorlik, tug'ilgan nafaqalarini proaktiv shaklda tayinlash va to'lash tartibi yo'lga qo'yildi.

Ayniqsa, ijtimoiy davlatga mos bo'lgan ta'lim va tibbiyot sohaslariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, uzluksiz ta'lim tizimini muntazam takomillashtirib borish bo'yicha misli ko'rilmagan islohotlar olib borildi. Natijada maktabgacha ta'lim qamrovi 27,7 foizdan 67 foizga, yoshlarni oliy

MINTAQAVIY SAVDO VA IQTISODIYOT RIVOJIDA YANA BIR QADAM

Bugun dunyoda kechayotgan jarayonlar, turli mintaqalarda kuzatilayotgan notinchiliklar barcha mamlakatlar qatori O'zbekistonga ham salbiy ta'sirini ko'rsatishi, shubhasiz. Ana shunday murakkab vaziyatda ming marta o'ylab, so'ng qadam tashlash, oqilona qarorlar qabul qilish nihoyatda dolzarb. Bu xalqaro munosabatlarga ham taalluqli.

Munosabat

Shu bois keyingi yillarda yurtimizda ochiqchilik va vazminlik siyosati yetakchi o'rinda, desak, mubolag'a emas. Ya'ni mamlakatimizning tashqi va ichki siyosatiga doir islohotlar, ko'rilgan izchil chora-tadbirlar natijasida tarixan qisqa davrda O'zbekiston xalqaro maydonda o'z nufrasi va aytar so'ziga ega davlat sifatida namoyon bo'ldi. Hamkor davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarni yanada mustahkamlashga a'zo mamlakatlar o'rtasida muntazam ta'lim tizimini muntazam takomillashtirib borish bo'yicha misli ko'rilmagan islohotlar olib borildi.

Ma'lumki, 2009-yilning 3-oktyabrda Turkiy kengash tashkil etilgan bo'lib, 2021-yil 12-noyabrda Turkiy davlatlar tashkiloti sifatida qayta nomlandi. Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya va O'zbekiston uning a'zolaridir. Kuzatuvchi davlatlar sifatida Vengriya, Turkmaniston va Shimoliy Kipr ham tuzilma ishida faol qatnashib kelmoqda.

Turkiy davlatlar tashkilotining asosiy maqsadi — a'zo mamlakatlar o'rtasida mintaqaviy savdoni va iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotni rivojlantirish hisoblanadi.

Yodingizda bo'lsa, maxsus investitsiya jamg'armasini ta'is etish g'oyasi 2019-yilda Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashining 7-sammitida davlat rahbarlari tomonidan ma'qullangan edi. Turkiy kengashining 2021-yildagi norasmiy sammitida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan mazkur jamg'armani ta'is qilishni jadalashtirish tashabbusi ilgari surildi.

Shu tariqa 2023-yil 16-martda Anqara shahrida Turkiy investitsiya jamg'armasini ta'is etish to'g'risidagi bitim imzolandi. Uning maqsadi tashkilotga a'zo mamlakatlar o'rtasida mintaqaviy savdoni va iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotni rivojlantirishdan iborat. Mazkur bitim Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar o'rtasida Turkiy investitsiya jamg'armasini ta'is qilishni, uning huquqiy maqomini belgilaydi.

Shu o'rinda ushbu bitimning mazmun-mohiyati haqida kengroq to'xtalish maqsadga muvofiq.

Dastlab jamg'arma moliyaviy resurslarini shakllantirish tartibiga e'tibor qaratmoqchimiz. Jamg'armaning ustav kapitali — 500 mln. dollar (har bir davlat uchun 70 mln. dollar hamda mamlakatlarining roziligi bilan qo'shimcha 30 mln. dollar jalb qilinishi mumkin). Ustav kapitali fond har biri nominal qiymati 50 ming dollar bo'lgan 10 mingta aksiyaga (har bir davlat uchun 2000 ta aksiya) bo'lingan.

Mamlakatimiz ulushini shakllantirish manbai sifatida O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari belgilanmoqda.

Mazkur jamg'armani tashkil etish va

boshqarish tartibi ham o'ziga xos. Boshqaruv Jamg'arma prezidenti, Boshqaruvchilar kengashi, Direktorlar kengashi, Bosh direktor va xodimlar sh-tadidan iborat bo'ladi.

Boshqaruvchilar kengashi jamg'armaning oliy boshqaruv organi bo'lib, har bir a'zo davlatdan unga boshqaruvchi tayinlanadi. Direktorlar kengashi a'zo davlatlar vakillaridan iborat bo'ladi. Jamg'arma prezidenti Boshqaruvchilar kengashi tomonidan 4 yil muddatga tayinlanadi. Jamg'arma prezidenti va Bosh direktori davlatlar o'rtasida kelishilgan rotatsiya tartibi asosida tayinlanadi.

Jamg'arma resurslaridan foydalanish tartibi haqida so'z ketganda, mablag'lar o'zaro savdo, qo'shma loyihalar, "yashil" iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, transport, logistika va boshqa ustuvor sohalarni rivojlantirishga yo'naltirilishini ta'kidlash zarur.

Jamg'arma ta'is majlisi o'tkazilgan kundan boshlab 20 yil davomida faoliyat ko'rsatadi. Boshqaruvchilar kengashi istalgan vaqtda jamg'arma faoliyatini tugatish yoki uzaytirish to'g'risida qarorga kelishi bundan mustasno.

Xo'sh, ushbu bitimning qabul qilinishi biz uchun qanday imkoniyatlar beradi? Avvalo, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan munosabatlarda O'zbekistonning ijobiy imjini mustahkamlashga yo'l ochadi. Muhimi, a'zo davlatlar o'rtasida tadbirkorlikni rag'batlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirishga zamin yaratadi. Shuningdek, transport-logistika sohasida O'zbekiston uchun dolzarb bo'lgan investitsiya loyihalari amalga oshirishga hamda mamlakatlar o'rtasidagi sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Kobul TURSUNOV, Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.

Parlamentdagi muxbirimiz xabar qiladi

QONUN IJROSI NEGA KECHIKTIRILMOQDA?

"Genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olish to'g'risida"gi Qonun 2020-yilda qabul qilingan va o'sha yilning 24-noyabrda Prezidentimiz tomonidan imzolangan edi. Qonun ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'lib, 2023-yil 1-yanvardan kuchga kirgan.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi tomonidan Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar, Adliya, Sog'liqni saqlash hamda Iqtisodiyot va moliya vazirliklarining rahbariyati hamda mas'ul xodimlari ishtirokida o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishda mazkur qonun ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar holatini nazorat-tahlil tartibida o'rganish yakunlari muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, zamonaviy rivojlanishning hozirgi bosqichida jinoyat usullari ham takomillashib bormoqda. Ularning asosiy maqsadi jinoyat sodir qilingan joyda iz qoldirmaslik bo'lib, bu jinoyatlarni fosh etish jarayonini qiyinlashtirmoqda. Ilg'or xorijiy tajriba shuni ko'rsatmoqdadki, jinoyatchilik bilan kurashishda genom axboroti ma'lumotlar bazasi yordamida jinoyatlarni fosh qilish muhim ahamiyat kasb etib, yuqori samara bermoqda. O'z-o'zidan anglashiladiki, bedarak yo'qolgan shaxslarni topish va topilgan murdalarning shaxsini aniqlash maqsadida, albatta, genom axborotining yagona ma'lumotlar bazasi yaratilishi lozim.

Tadbirida qo'mita tomonidan yuqoridagi qonun ijrosi doirasida vakolati davlat organlari bajargan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilindi.

Ta'kidlab o'tilganidek, nazorat-tahlil tadbiri jarayonida qonun ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati bilan yaqindan tanishish maqsadida qo'mita a'zolarining Ichki ishlar vazirligi Ekspertiza-kriminalistika bosh markazi hamda mazkur markazga qarashli Portlash texnik ekspertizalar bo'limiga tashrifi tashkil etilgan.

Qo'mita nazorat-tahlil tadbirida aniqlangan kamchiliklar, sohaga oid qonunchilik hujjatlarini o'rganish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish asosida "Genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olish to'g'risida"gi Qonun ijrosi qoniqarsiz ahvolda degan xulosaga kelgan.

Yig'ilishda o'rganishlar davomida qonun ijrosi yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirishda jiddiy muammolar mavjudligi qayd etib o'tildi. Xususan, ushbu hujjat ijrosini ta'minlashda asosiy vazifalardan biri — genom bo'yicha davlat ro'yxatini amalga oshirishda olingan genomga oid axborot va odamning shaxsi haqidagi ma'lumotlar saqlanadigan avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish hisoblanadi. Qonun bilan genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olish sohasidagi vakolati davlat organi sifatida Ichki ishlar vazirligi belgilangan bo'lib, vazirlik tomonidan Genomga oid axborotning yagona ma'lumotlar bazasini yaratish borasidagi ishlar Davlat byudjetidan mablag' ajratilmayotganligi uchun yakuniga yetkazilmay qolmoqda. Ushbu vazifalar nazarda tutilgan muddatlarda bajarilmaganligi sababli qonunning ijro etilishi o'n oyga kechiktirilmoqda.

Deputatlar qonun ijrosini ta'minlash ustidan nazoratni kuchaytirish lozimligiga e'tibor qaratib, vazirlik va idoralar vakillariga bir qator taklif va tavsiyalarini berdi.

Yakunda Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi a'zolari tomonidan mazkur hujjat ijrosi parlamentning doimiy nazoratida bo'lishi alohida ta'kidlandi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

Ziyoda ASHUROVA ("Xalq so'zi").

Fikr

Ta'kidlash joiz, keyingi yillarda bu boradagi qonun hujjatlarini, ijtimoiy dasturlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash xarajatlarini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2 baravar oshib, nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 baravar ko'paydi. Har bir muhtoj insonga uning real ehtiyojidan kelib chiqib yordam ko'rsatish imkoniyati yaratildi va bu yo'nalishda mutlaqo yangi, o'ziga xos tizim yaratildi. Jumladan, "temir daftar", "ayollar daftar", "yoshlar daftar", mahallabay va xonadonbay ishlash mexanizmlari aynan shu maqsadlar uchun joriy etilgan bo'lib, xotin-qizlar, yoshlar, umuman, ijtimoiy yordamga

muhtojlar muammo va kamchiliklari manzilli o'rganilib, o'z vaqtida va samarali hal etish choralari ko'rilmoqda. Ma'lumki, keksalar va muhtojlar, kam ta'minlangan oilalarga yordam, mehruvurvat ko'rsatish xalqimizning ezgu qadriyatlaridan sanaladi va bunday say'harakatlar bugun yangicha mazmun-ma'no kasb etmoqda. "Besh muhim tashabbus", "Har bir oila — tadbirkor", "Obod mahalla", "Yoshlar — kelajagimiz", "Obod qishloq" kabi dasturlar shu maqsadlar uchun xizmat qilayotganini alohida e'tirof etish lozim.

Yuqoridagi fikrlarimiz isbotini quyidagi raqamlarda ko'rish mumkin: 2016-yildan 2022-yilgacha ijtimoiy nafaqalarga ajratilayotgan

"Oltin O'zbekiston tuprog'i bu kun..."

Kuz qanday fasl? O'yab ko'rganmisiz?! Yoshlikda bu xayolingizga ham kelmaydi. Chunki yoshlik — umring bahor fasli. Lekin har qanday bahorning zimmida kuz o'ladi. Biz uni ko'rmaymiz. Go'yoki bilmaymiz. Inson fikr va xayol bilan yashaydi. Dil ozayotgan yaproqqa qarab, ko'nglidan o'tadi: kuzda to'kiladi. Yerga tushadi. Xazonga o'nadi. Kuz g'oyibi huvaydoliq' emas. Kuz Marsdan yoki Merkuriydan kelmaydi. Bahorning botin-botinidan, yozning nihon-nihonlig'idan o'tib, ro'paramizda ko'rinadi. Oki biz bahoru yozdan o'tib, kuzga yetib boramizmi?!

Kuzning zarrin o'yarlari

Borliqda kuz kezyapti. Faqat tashqaridami? Ko'z o'ngimizdami? Ichimimizda, ko'ngil ruhiyatimizda-chi? Kuz tafakkurimizni-da o'ylama yoldimayaptimi? Xayollarimizni chuvalashtirmayaptimi? Quyosh nurlarining horg'inligi, bahordagi yam-yashil yaproqlarning sarg'ayib jovdirashlari, mung'aygan bargdagi shabnam qatrasining ko'z yoshday mo'tirashi... bari-bari boshqa dunyodami? Yo'q, bizning bog'imizda, bizning ruhimizda. Bularni his etmay bo'lardimi?! Ko'zlarimizni yumolmaymiz... Ko'ngil ko'zlarini-da yopolmaymiz... Ko'rib turibmiz-ku! Barg uzilay-uzilay deyapti. Mevalari terilgan... Mevasiz daraxt og'ir, juda og'ir o'ylama o'xshaydi. Uni anglay olasizmi, tushuna olasizmi? Uni qanday yupatasiz? Yig'layotgani yo'qmikin u?

Kuzda o'ylarimning so'ngi ko'rinmaydi. Poyonsiz chigal xayollar ichida qayoqqa borayotganimni ham bilolmayman. "Chollarga hassalar yo'ngan bu fasl" (Abdulla Oripov) insonni vazminlashtiradi. Bahorning jo'shqinligi, yozning olovligi, quyoshning so'ngisiz otashligi... gullarning gulxanligi, daraxtlarning avju mavjligi... hammasi o'tdi. Bari o'tyapti. Nima o'tmay qoladi? Nima mangu turadi? Nima kuzni tan olmaydi? Kuz xazonida kim o'ylama tolmaydi? Kuzga bo'ysunmaydigan odam bormi? Daryomi... sokinlashadi... Tog'mi... og'ir ko'ydagi o'ylaydi. Mangu yashil archalar ham... qalb-qalbdan tin oladi. Jim bo'lib qoladi...

Kuz men uchun ulug' keksa Inson... U bilan suhbatlashgim keladi. Bilmaganlarimni so'rasam, deymen. Kuz bu savollar javobini bilar, balki...

Tiramoh... tirama... Eshitingansiz-a?! O'lis yillardan beri o'ylayman: "tirama" so'zining ma'nosi qanday? "Kuzni tirama, deydi-da. Nahotki, shuni ham

bilmaysiz?!" "Shevaning so'zi bu, aslida, kuz... kuz fasli." Ha, shevaning so'zi bo'la qolsin. Ammo nima uchun u kuz?! Nima, shevadagi so'zlar ma'nosizmi? Mohiyatini nega unutmamiz! Fors tilida "Tiyrai moh", oddiyroq qilib aytilsa, qora oy... to'g'rimi? Kuz qora oymi? Fikrim qabul qilmayapti: kuz — qora oy. Balki, bu yerda boshqa o'y bordir?! Bir paytlar xayolimdand o'tgan edi... Kulib qo'ygandim. Keling, aytayin: kuz — qora oy emas, qorong'ulikdagi oy... qayg'ulanayotgan oy, hazinlikdagi oy... xazonlikdagi oy.

Oy bahorni o'tkazdi. Gullagan paytlar ortda qoldi. Oy issiq, quyoshli, otashin damlarni ko'rdi. Ular ketdi. Endi oy hazinlikda. Go'zal hayot horg'in faslda. Oy kuzda — tiyra moh...

Kuzda Mehrjon kuni bor. Bu bayram qanday paydo bo'lgan? Tabiat bu faslda insonga bor mehrini, bor hosilini beradi. Shundamkin? Qanday bo'lsa ham kuz sizni o'ylantiradi. Men kuz faslida xayolga tolmaydigan odam borligiga ishonmayman. Hatto anglab yetadimi, anglab yetmaydimi, bolakaylar ham kuz havosida, kuz paytlarida bi-ir o'ylarga toladiganday...

Kuzda bir rivoyat bot-bot yodimga tushadi. Balki siz ham eshitgandirsiz?! Rivoyat kuzning boshqa bir zarifligini, doim ham ko'ngilga kelavermaydigan botiniy nuri jihatini eslatadiganday...

Shoh ovga borib, poyonsiz sahrada adashib qoldi. Ketaverdi, ketaverdi. Vo ajab, uzoqda bog'g'mi, daraxtlarni... elas-elas ko'rdi. Adashganga yo'l kerak. Najotu imdod zarur. Shoh otni ko'rinayotgan bog' sari burdi. Bordi-yu, hayratlandi. "Nihoyatda go'zal bog'. Bog'boniga ming rahmat. Zahmatkash bog'bon ekan", xayolidan o'tkazdi.

Qo'lidagi qamchining dastasi bog' eshigidan ichkariga kirib ketdi. Ko'p vaqt chiqib keldi. Shoh ro'parasida yuzidan nur yog'ilib turgan, oppoq soqolli, nuroniy kishi. Juda farishtali. Shoh beixtiyor otdan tushdi. Nuroniy bilan salomlashdi: — Chanqadim. Juda chanqadim. Bir piyola suv bersangiz, — shoh holdan toyan tarzda qaradi. Bog'bon: — Hozir... Hozir, — degancha bog' eshigidan ichkariga kirib ketdi. Ko'p vaqt o'tmadi. Ko'z ochib yumguncha, desak ham bo'lar. Bog'bon shoshilganicha keldi: — Marhamat, mana, bir kosa anor suvi... anor sharbati. Shoh chinni kosadagi limmo-lim anor sharbatini miriqib-miriqib, butun vujudi yayrab ichdi. Ichib bo'ldi-yu... ne holki, fikri buzildi: "Bunday anor sharbati dunyoda yo'q. Shirinligini... nega bu bog' bir keksa cholniki? Meniki bo'lishi kerak. Meniki..." — Shu... yana bir kosa bersangiz... Bog'bon hayalladi. "Ha" deganda kelavermadi. Shoh toqatsizlandi. Bir payt bog'bon chinni kosadiga anor sharbati bilan chiqib keldi. Mehmonga uzatdi. Shoh ichib bo'lib, sinchkov qarab, so'radi: — Birinchi kosadagi anor sharbatini bir lahza olib keldingiz. To'la edi. Limmo-lim edi. Ikkinchi kosa anor suvi uchun ancha ushlandingiz. Kosada anor suvi bor-yo'qligina ekan. Sabab? Bu ne holning belgisi? Nechun bunday bo'ldi? Bog'bon xijolatlandi. O'zi ham noqulay holatda edi. Lekin piru valiylikdan xabari bormidimikin, rost gapni, ko'ngildagi haqiqatni aytdi: — Siz, birinchi bor... kelgan paytingiz, yuragingizda hayrat ila boqqa nazar tashlab, suv so'radingiz... bir dona anorand bir chinni kosa shirin sharbat chiqdi. Siz ikkinchi bor, suv so'radingiz... bu paytda, sizning qalbingizni hasad zabt etgan edi. Avval, yaxshilik bahrida edingiz, keyin yomonlik zahrida qoldingiz. Dunyoni bog'u bo'ston qilguvchi ham, nobudu vayron qilguvchi ham ko'ngilidir... Niyatdir. Hayratning ichida hayot yashaydi. Hasadning ichida yo'qlig'u barbodlik. Rivoyatdagi nuroniy bog'bon — kuz. Kuzning ayni o'zi. Mo'jizaviy bog' esa hayot... Ha-ha, bu hayot!

Qalbi nafs yo'lida evrilayotgan shoh kim? Biz kuzga qanday niyat bilan qarasaq, o'shani topamiz. Kuzga mehrjon ko'ngil bilan nazar tashlasak, mehrni, barakani, mo'l-ko'llikni, limmo-limlikni, go'zal baxtni, nurli umri — chinni kosa to'la anor sharbatini to'yib, miriqib, yayrab simiramiz. Kuzga yomon fikr bilan qarasaq, unda qorong'ulikni, nolong'ulikni, g'amu qayg'ulik, yotu yog'ulikni ko'ramiz. "o'abda men quvonchni ko'raman" (Pahlavon Mahmud), deydi alloma. Kuzda noyob-noyob munavvarliklar ko'rinmay kezadi. "Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor" (Halima Hudoyberdiyeva). Elimizda "Qo'sha qaringlar, qo'sha qarib yuringlar", degan oltin so'zlar yuradi. Bu — chinni kosadagi limmo-lim anor sharbatini simirib yuringlar, degani emasmi?! Bahormi, yozmi, kuzmi, hamisha hayratu havas bilan umri quyoshli qilinglar, degani-ku bu. Bobolarning, momolarning bag'ri nevarachevara, evaralar bilan to'la bo'lsa... bu — hayot shirinligi!

Termizda Oromiddinjon degan tabib do'stim bor, ancha tanilgan. Suhbatini olib turaman. Qiziq gapni aytib qoldi: — Kuzning quyoshi davolarning davosi, shifolarning shifosi. Bu faslning mayin issigi, yoqimli nuri 300 dan oshiq kasalliklarga malham. Kuzdagi o'tob taffi minglab "tabletkadan" afzal. Buni bilgan biladi, bilmaganlar shifoxonada "osma" ukol olib yotibdi. Kuzning quyoshi borasida Ibn Sino bobomiz qoyilmaqom qilib yozib ketgan. Oromiddinjon kuzning shifobaxsh issigi haqida gapirib ado qilmaydi. Kuzning shifobaxsh nuriga navobaxsh hol payvastlandi. O'zbekistonda ko'chatlar ekilyapti. Millionlab, yuz millionlab ko'chatlar... Kuzning ko'ragi ko'tariyapti. Archalar, bodomlar, teraklar, o'riklar... sanab sanog'iga yetolmaymiz. Ko'chat ekib ko'rganisiz-a?! Nimani his qilgansiz?! Ko'ngilgizda qanday kuchni tujangisiz?! Bu ma'lum bir ishni bir ishchi bajarishi emas. Aslo, bu tabarruk yumush. Ukurlatganingizda niholga ko'zingizning nurlari singadi. Ko'chat jon-jonidagi bir nima yorug'liklar yuragingizga tutashadi. "Shu ko'chatni men ekdim. U endi o'sadi, bo'y ko'rsatadi. Meva tugadi.



Odamlar mevasini totib, "Bu daraxtni ekkanga rahmat", deydi. Umringizga umr qo'shadi qadayotgan nihollaringiz. Vujudingiz kuchlanadi, g'ururingiz nurlanadi. Siz hayotning aziz insonisiz, ko'chatlar ekyapsiz. U ko'ngilgizga-da o'mashadi: "Kuz payti edi, ariq suvlari tip-tiniq kunlar... ko'chat ekdik, suv quydik..." Unutolmaymiz bu nihollarni. Daraxt bo'lib bo'y cho'zganlarini ko'ringiz keladi. O'n yillardan oshdi. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovning najib kunlari sabab, u aziz va tabarruk anor tug'ilgan qishloqqa bordik. Bog' tashkil etildi. Men ham... ha-ha, o'sha boqqa men ham olma ko'chatlarini ekdim. Haligacha sog'inaman o'sha ko'chatlarni. Katta daraxtlarga aylangan, bilaman. Borsam, taniyman. Albatta, topib olaman. Salomlashaman, quchib, barglaridan o'paman. Qayerda, qachon, qanday ko'chat ekkan bo'lsam, ular menga aziz. Yuragimda gurkirab boryapti ular. U ko'chatlar, u daraxtlarda umrimning bir parchasi bor. Kuzning yana bir mo'jizasi haqida gapirmasam, ko'nglim to'lmaydi... Buni bilganlarida professorlar, akademiklar, zo'r-zo'r olimlar ham hayron qolishgan... Xalqimiz ko'p donishmand. Bodom — sovuqlik, yong'oq — issiqlik, deydi. Limon, oshqovoq — sovuqlik... Tibbiyotchilar buni ononlik bilan tan olmaydi. Safsataga yo'yadi. Ayniqsa, bu hol shofokorlarni, hakimlarni lol qoldiradi — ishonishmaydi. Gap tabiatning sir-sinoatida. Sirli holga o'xshaydi. Kuzda mezon uchadi. Oppoq mezonlar... Ko'rganmisiz?! Men ko'rib, qo'llarimga o'rab, rosa tikilganman. Sirini bilay, deb. Bobolarimiz naql qiladi: mezon suvini ichgan tarvuz issiqqa o'tadi.

Oldin sovuqlik edi. Endi issiqlik. Qanday qilib?! Bu — ko'pchilik angloilmaydigan sir. Kuzning kuzligi shunda. Bu faslda ko'zga ko'rinmas, mayin, nozik, nafis va buyuk issiqlik bor. Qancha-qancha sovuq ne'matlar issiqqa o'tadi. Kuz aql bovar qilmas holatlarga boy. Otam aytardi: mezon shamolini yeb, issig'iga to'yingan tarvuz otning go'shti bilan teng bo'ladi, juda issiq... nihoyatda issiq keladi. To'g'ri, fan, ilm hali buning sababu jarayonlarini kashf qilmadi. Biroq qachondir kashf etiladi. Shunda donishmandu tabarruk kuzga yana bir bor tabassum bilan ta'zim qilamiz. Kuzgi xayollar uchgani-uchgan. Qo'shilib uchib boryapman. Ammo xayol hamisha cheksiz. Adog'i ko'rinmaydi. Kuz "dehqon" shoirlardan buyuk shoirlargacha... hammasiga cheksiz ilhom bergan. Kuz faslida abadiy yashaydigan she'rilar dunyoga kelgan. E'tibor qildingizmi? Kuz hayot o'tkinchiligi eslatadi, lekin kuz ilhomlaridan tug'ilgan she'rilar abadiy... ming yillab yashaydi. Hammasi o'tib ketadi, deyayotgan kuzning asrori zavqlaridan mangulik yaraladi. Kuz — qudratli. Uning sirlarida abadiylik ko'rinadi. Kuz va shoirlar... O, qiziq mavzu! *Yurgil, dalalarga ketaylik, do'stim, Diqqinafas uydga yotmoq paytimas. Oltin O'zbekiston tuprog'i bu kun, Bir pari fashing og'ushida mast.* Buyuk shoir Abdulla Oripovning marvarid misralari kuz xayollarining yombi ifodasi... Mengnor OLLOMUROD, shoir. Surxondaryo

Tanlovda qatnashish istagini bildirgan yuridik shaxslar diqqatiga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-fevraldagi 141, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 7-martdagi 124 hamda 2022-yil 25-iyuldagi 404-qarorlariga asosan Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining bo'sh suv havzalari uchastkalari tanlov asosida ijaraga berilishi ma'lum qilinadi.

Tanlov tashkilotchisi: "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi" MCHJ.
Manzili: Jizzax viloyati, Arnasoy tumani, E'oliblar shaharchasi.
Telefonlar: (93) 303-44-28; (88) 567-00-05.
Elektron pochta: aydarkol@umail.uz

Tanlov predmeti: Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi suv havzasidagi 191,6 ming gektar bo'lgan jami 95 ta lotni baliq ovlash xo'jaliklariga sanoat baliq ovlashini amalga oshirish uchun 10 (o'n) yil muddatga ochiq tanlov asosida ijaraga berish.

Talabgorlar tanlov haqidagi batafsil ma'lumotlarni "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi" MCHJdan olishlari mumkin. Talabgorlardan arizani ko'rib chiqish uchun BHMning uchdan bir baravari miqdorida to'lov undiriladi. Ushbu mablag'lar jamiyatning bank hisob raqamiga kelib tushadi va tanlovni tayyorlash hamda o'tkazish uchun ishlatiladi. Buyurtmanomani ko'rib chiqish uchun to'langan to'lovlar qaytarilmaydi.

Bundan tashqari, talabgorlardan suv havzasi uchastkasi uchun belgilangan yillik ijaraga haqining 30% miqdorida to'lov (garov puli) undiriladi. Ushbu mablag'lar jamiyatning bank hisob raqamiga kelib tushadi va tanlov g'olibining dastlabki ijaraga haqi uchun to'lov sifatida hisob-kitob qilinadi. Tanlovda g'olib bo'la olmagan talabgorlarning ushbu to'lovi qaytariladi.

"Trast bank" XAB Jizzax viloyati filiali
h/r: 2021 0000 1007 4754 5001; MFO-01166; STIR: 304 741 887;
"Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi" MCHJ.
To'lov maqsadi: "Tanlovda ishtirok etish uchun to'lov". Tanlovda qatnashish uchun talabgor yoki uning vakili shaxsan yoxud pochta orqali buyurtma xat bilan, arizani ikki nusxada, ko'rib chiqish uchun to'lovning to'langanligini tasdiqlovchi to'lov hujjati bilan birga, muhrlangan 2 ta konvertida (asli va nusxasi) quyidagi hujjatlarni "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi" MCHJga taqdim etishi lozim:

1. Ko'rib chiqish uchun to'lovning to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar (jumladan, BHMning uchdan bir baravari miqdorida to'lovi va yillik ijaraga haqining 30% miqdori to'langanligini tasdiqlovchi);
2. Korxonaga guvohnomasi va ustavi (nizom) nusxasi;
3. Korxonaga rahbari pasport nusxasi, rahbarlikka tayinlanganligi to'g'risida buyruq. Korxonada mavjud ishchi xodimlar ro'yxati (pasport nusxalari ilova qilingan holda);
4. Baliq ovlashni amalga oshirish bo'yicha biznes-reja;
- 4.1. Biznes-rejada quyidagi asosiy qoidalar aks ettirilishi lozim:
 - bir yilda o'rtacha ovlashni kutilayotgan miqdor; iqtisodiy samaradorlik hisob-kitoblari haqidagi ma'lumotlar;
 - kiritilishi kutilayotgan investitsiya miqdori va sohasi; baliq ovlashni amalga oshirish bo'yicha biznes-rejaning moliyalashtirish manbalari (talabgorning o'z mablag'lari hisobiga, kreditlar va hokazo) bilan ta'minlanganligi haqidagi ma'lumotlar;
 - tashkil etiladigan ish o'rinlari soni; xodimlar tashlatning tajribali baliqchilar, ixtiologlar, boshqa mutaxassis va ekspertlar bilan to'ldirilganligi;
 - 5. Korxonaga balansidagi yoki aynan korxonaga rahbari nomidagi baliq ovlash va tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish uchun moddiy-texnika vositalari (rusumi ko'rsatilgan qayiqqlar va motorli qayiqqlar, avtotransport vositalari, ovlash qurollari, baliq va baliq mahsulotlarini saqlash uchun sovitsh uskunalari va hokazolarning mavjudligi haqidagi ma'lumotlar;
 - 6. Talabgor korxonaning umumiy va baliqchilik sohasidagi faoliyat davriga oid ma'lumot. Xususan,

baliqchilik sohasida muqaddam faoliyat olib borgan va bugungi kunda jamiyat uchun huquqiylori hisoblangan "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi direksiyasi" DUK bilan shartnoma asosida ish olib borganligi, shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajargan-bajarmaganligi, ijaraga shartnoma bo'yicha qarzdorligi holati;

7. Korxonaga balans (o'tgan yil yakuni yoki joriy yil yakunlangan choragi bo'yicha), ya'ni o'z mablag'lari va moliyaviy holati to'g'risida ma'lumot;

8. Talabgorning tabiatni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlari kompleksi.

Talabgorlardan yuqorida ko'zda tutilmagan hujjatlarni talab qilishga yo'l qo'ylamaydi.

Tanlovda ishtirok etish uchun qiziqish bildirgan yuridik shaxslar jamiyatdan quyidagi hujjatlar va ma'lumotlarni olishlari mumkin:

1. Tanlovda ishtirok etish shartlari, talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan hujjat va ma'lumotlar ro'yxati;
2. Tanlovga qo'yilgan suv havzasi uchastkalariga oid ma'lumotlar:
 - suv havzasi uchastkasi (konturi)ning raqami;
 - suv havzasi uchastkasining joylashgan koordinatlari;
 - suv havzasi uchastkasining maydoni;
 - suv havzasi uchastkasining xarita-sxemasi;
 - suv havzasi uchastkasining o'rtacha baliq mahsuldorligi;
 - suv havzasi uchastkasining yillik ijaraga haqi miqdori;
 - 3. "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi" MCHJ uchastkalarini baliq ovlash xo'jaliklariga baliq yetishtirish va ovlash uchun ijaraga berish shartnoma loyihasi bilan jamiyatda tanishishlari mumkin.

Talabgorlarning tanlov takliflari joylashgan konvertlar 2023-yil 1-2-dekabr kunlari soat 10.00 da Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Beshquvvur ko'chasi, 56-uyda joylashgan Sirdaryo — Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma'muriy binosida ochiladi.

Tanlovga hujjatlar tanlov o'tkazilishi haqida e'lon berilgan sanadan boshlab o'ttiz kun davomida, ya'ni 2023-yil 30-noyabr soat 18.00 ga qadar jamiyat ma'muriy binosida qabul qilinadi.

PEKJAMA

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

TOSHKENT FARMASEVTIKA INSTITUTI

kafedralardagi quyidagi lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:
Farmasevtik kimyo kafedrasi bo'yicha: kafedra mudiri.
Farmasevtik ishlab chiqarishni tashkil qilish va sifat menejmenti kafedrasi bo'yicha: professor — 1, dotsent — 3, katta o'qituvchi — 2, assistent — 1.
Toksikologik kimyo kafedrasi bo'yicha: kafedra mudiri, professor — 1, dotsent — 1, katta o'qituvchi — 1.
Ijtimoiy fanlar kafedrasi bo'yicha: kafedra mudiri.
Dori turlari texnologiyasi kafedrasi bo'yicha: katta o'qituvchi — 2.
Noorganik, fizik va kolloid kimyo kafedrasi bo'yicha: kafedra mudiri, professor — 1, dotsent — 1.
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi bo'yicha: katta o'qituvchi — 2.
Farmasevtika ishni tashkil qilish kafedrasi bo'yicha: kafedra mudiri, assistent — 3.
Dori vositalarining sanoat texnologiyasi kafedrasi bo'yicha: dotsent — 2, katta o'qituvchi — 1, assistent — 2.
Farmakognoziya kafedrasi bo'yicha: professor-1, dotsent-2, assistent-1.
Fizika, matematika va axborot texnologiyalari kafedrasi bo'yicha: assistent — 1.
Organik sintez kafedrasi bo'yicha: professor — 1, katta o'qituvchi — 2, assistent — 1.
Analitik kimyo kafedrasi bo'yicha: kafedra mudiri, professor — 1, dotsent — 1, assistent — 2.
Farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrasi bo'yicha: dotsent — 1.
Farmakognoziya va dori vositalarini standartlash kafedrasi bo'yicha: kafedra mudiri, assistent — 2.

Tanlov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 10-fevraldagi 20-son qaroriga muvofiq "Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 25-avgustdagi 246-son "O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga pedagogik faoliyat samaradorligi va sifatini oshirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori asosida o'tkaziladi.

Tanlovda ishtirok etish uchun arizalar e'lon chiqarilgan kundan boshlab 1 oy ichida qabul qilinadi.

Manzil: Toshkent shahri, Oybek ko'chasi, 45-uy. Telefonlar: 71-256-37-38, 71-256-38-50.

E'LON

2023-yilning 10-noyabr kuni "MAXCAB" MCHJ korxonasi (Yangihayot tumani Chortoq mahallasi Janubiy sanoat hududi 115-uy) binosida ekologiya xulosasini olish bo'yicha jamoat yig'ilishi o'tkaziladi. Shu hududda yashovchi fuqarolarni taklif qilamiz.

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1041.32 572 nusxada bosildi. Hajmi — 2 tabog. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismoilov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir D. Karimov.
Muharrir Sh. Mashrabboev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonaga manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.08 Topshirildi — 01.40 **1 2 3 4 5 6**

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi